



ISSN: 3060-4613

PSIXOLOGIYA YO'NALISHI




№06/2025

M

- 13.00.00 - Pedagogika fanlari
- 07.00.00 - Tarix fanlari
- 19.00.00 - Psixologiya fanlari
- 01.00.00 - Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 - Kimyo fanlari
- 03.00.00 - Biologiya fanlari
- 09.00.00 - Falsafa fanlari
- 10.00.00 - Filologiya fanlari
- 11.00.00 - Geografiya fanlari

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga
ixtisoslashgan ilmiy jurnal





BOSH MUHARRIR:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Mizayeva Faroxat Odiljonovna – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Umarova H.O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q.M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori professor

G'afurov D.O. – falsafa fanlari doktori (PhD)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A.T. – Toshkent davlat iqtisodiyot unversiteti kafedra professori

Ashurov R.R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M.A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N.A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Mizayeva Farokhat Odiljonovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

Qirg'izboyev A.K – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K.M. - Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. - Doctor of Philosophy, Professor

Gafurov D.O. - Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. - Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. - Doctor of Philosophy, Professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. - is a Professor of Toshkent State University of Economics

Ashurov R.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology

Panjiyev M.A - First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N.A. - Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya rayosatining komissiyasining 08.05.2025 yildagi №370/5 qarori bilan Psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), Psixologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy nashrlar ro’yxatiga kiritilganligini ma’lum qilamiz.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo’yicha ekspert kengashi tavsiyasi (25-05-2025 y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (07-05-2025 y., №5/6); OAK Rayosatining qarori (08-05-2025 y., №370/5).

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan №C-5669245 reyestr
raqami tartibi bo’yicha ro’yxatdan
o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310



MUNDARIJA

O'SMIRLARDA DESTРУKТИV XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	10
Umarov Baxriddin Mengboyevich, Jabborova Zilola Baxtiyor qizi ONA VA FARZAND MUNOSABATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	16
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna PROFESSOR-O'QITUVCHILAR IMIJINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	21
Jo'rayeva Sohibjamol Norqobilovna OMMAVIY MADANIYATNI BOLALAR XULQ-ATVORIGA TA'SIRINI PSIXOLOGIK SHARTLARI.....	29
Umarova Navbahor Shokirovna PEDAGOGIK FAOLIYATDA KASBIY SO'NISH JARAYONINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK JIHATLARI.....	33
Botirova Dilafro'z Bozorovna BULLING XULQ-ATVORINING NAMOYON BO'LISHI VA UNING MAKTAB O'QUVCHILARGA BO'LGAN TA'SIRI.....	39
Tillayeva Nodira Iskandar qizi TASHKILOTDA MOBBING VA UNING XODIMLAR PSIXOEMOTSIONAL SALOMATLIGIGA IJTIMOY-PSIXOLOGIK TA'SIRI.....	42
Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi OILAVIY MUNOSABATLARDA YETAKCHILIK MUAMMOLARI.....	46
Abdumutalova Madina Abdumalik qizi ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN AYOLLARNING IJTIMOY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	49
Abdurahmanova Durdona Dilshodjon qizi SHAXSDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI.....	54
To'raboyev Azamat Muxamadullayevich BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY MOYILLIKNING NAMOYON BO'LISHIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLAR.....	58
Saidova Nargiza Ismatulla qizi PSIXOLOGIYA TALABALARI AMALIYOTI JARAYONIDA KASBIY REFLEKSIYA KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH.....	62
Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna OTA-ONALARNING RAQAMLI VOSITALARDAN FOYDALANISH USLUBI VA BOLALARDA INTERNET QARAMLIGI RIVOJLANISHIGA TA'SIRI.....	67
Maxammadjonov Sherzodbek Ravshanbek o'g'li PSIXOLOGIYADA IJTIMOY MOTIVLAR MUAMMOSIGA BO'LGAN YONDASHUVLAR.....	71
Yo'ldoshev Javlon Ablanazar o'g'li OILAVIY ZIDDiyATLARNING SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TA'SIRI VA ULARNI HAL ETISH USULLARI.....	74
Raximova Gulxayo Alisherovna O'SMIRLIK DAVRINING PSIXOLOGIK MANBALARDAGI TAHLILI.....	79
Matyakubova Shohista Odamboy qizi BOSHLANG'ICH MAKTAB YOSHIDAGI (6-8 YOSH) CHAP QO'LI DOMINANT BO'LGAN BOLALARNING PSIXOLOGIK RIVOJLANISHI VA XUSUSIYATLARI.....	82
Usmanova Sevara Akmalovna OILA VA KASB MUVOZANATI MUAMMOSI ILMIY TADQIQOTLARNING PREDMETI SIFATIDA.....	86
Teshayev Sobit Sodik o'g'li PEDAGOGLARDA IJBOYIY FIKR SHAKLLANISHIDA OPTIMIZMNING NAMOYON BO'LISHI.....	90
Sattarova Shaxnozaxon Qo'chqarovna ПЕРФЕКЦИОНИЗМ КАК ФАКТОР ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ ОРГАНИЗАЦИИ.....	95
Атабоев Н.И O'SPIRINLIK DAVRIDA YUZAGA KELADIGAN NIZOLAR PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA.....	100
Maripova Asalxon Botiraliyevna MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARDA TASVIRIY SAN'ATGA QIZIQISHLAR SHAKLLANISHI.....	105
Salaxidinova Xolida Xaliljonovna	



O'SMIRLARDA REFLEKSIV QOBILİYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	110
Rustamov Narzillo Raxmonovich XORIJ PSIXOLOGIYASIDA "SHAXS O'Z IMKONIYATLARINI RO'YOBGA CHIQRISH" TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	113
Alimova Yayra Hotamovna PSIXOLOGIYADA PSIXOFIZIOLOGIK BILIMLARNING AHAMIYATI.....	119
Yakubova Guzal Asatullayevna PEDAGOGIK FAOLIYATDA KASBIY DEFORMATSIYA: SABABLARI VA OQIBATLARI.....	124
Abdulxomidova Fotimaxon Abdulxopizovna PSIXOLOGIYA FANIDA "STRESS" VA "STRESSGA BARQARORLIK" TUSHUNCHALARINING MAZMUNI.....	129
Ergashev Hasanboy YOSHLARNING OTA-ONALIK ROLIGA PSIXOLOGIK TAYYORLIGI DINAMIKASI.....	133
Niyozmetova Munira Ibragimovna MAKTABDA SAMARALI PEDAGOGIK USULLAR VA ULARNING PSIXOLOGIK ASOSLARI.....	138
Abdurahmonova Firuza Muhiddinovna BOLALARDA KOGNITIV JARAYONNING RIVOJLANISHI.....	142
N.X.Shakirova OGNITIV JARAYONLAR TUSHUNCHASI VA ULARNING TA'LIMDAGI ROLI.....	147
Axmedov Davlatbek Saloxidin o'g'li MULOQOTDA SHAXS YO'NALGANLIGI PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA.....	151
Raximova E'tibor Rustamovna OLIV TA'LIM MUASSASA TALABALARI TA'LIM FAOLIYATIDA O'QUV MOTIVATSIYASINING SHAKLLANISHIGA SUN'IY INTELEKTNING TA'SIRI.....	156
R.M.Baxtiyorov MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING FAOLIYATLAR JARAYONIDA IJODIY QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	162
Abduhalimova Durdona Ilhomovna BOKSCHILARNING JISMONIY VA TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	168
Qon'irbaev Dastan BOG'CHA YOSHIDAGI BOLALARDA XAYOLNING RIVOJLANISHI.....	173
Temirova Dilfuza Olim qizi TALABALAR JAMOASIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING XORIJ ADABIYOTLARDA YORITILISHI.....	177
Shukurullayev Xamidulla Nurilla o'g'li O'SMIRLARDAGI AGRESSIV XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIGA OILAVIY MUNOSABATLARNING TA'SIRI.....	182
Feruza Alimova Najimovna	

UDK: 373.24

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING FAOLIYATLAR JARAYONIDA IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

ABDUHALIMOVA DURDONA ILHOMOVNA

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

"Maktabgacha ta'lim" kafedrası magistri

E-mail: d.abduhalimova@dtpi.uz

ORCID: 0009-0006-3608-384X

Annotatsiya. Ushbu maqolada bog'cha tarbiyalanuvchilarining faoliyatlar jarayonida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar va ularning natijalari yoritilgan. 4–5 yoshli bolalar davri ularni tarbiyalash uchun eng qulay yosh bosqichi hisoblanadi. Bu davrda bolalar o'z tasavvurlarini namoyon qilishga va yangi g'oyalarga intilishga moyil bo'ladilar. Ijodiy fikrlashni rivojlantirishda o'yin, san'at, musiqa va tabiat bilan tanishish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish faoliyat jarayonlarida, ya'ni maktabgacha ta'lim tashkilotlarining mashg'ulotlarida markaziy o'rin egallaydi. Bolalarga ijodiy qobiliyatni tushuntirish va ularni san'at markazidagi faoliyatga jalb qilish maqsadida "Ijodkor bola" nomli tanlov ishlab chiqilib, amalga oshirildi. Tanlov samaradorligini baholash uchun tadbir oldidan va undan keyin so'rovnomaga o'tkazildi. Natijada ushbu tanlov bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va o'z salohiyatiga ishonchini mustahkamlashda ijobiy samara berdi.

Kalit so'zlar: bola tarbiyasi, ijodiy qobiliyat, faoliyat, tasavvur, mashg'ulot, faoliyatlar markazi.

Abstract. This article examines the activities aimed at developing the creative abilities of preschool children during their daily learning processes and presents the outcomes of these efforts. The age of 4–5 years is regarded as the most favorable period for child upbringing. At this stage, children are naturally inclined to visualize their imaginations and strive for new ideas. Play, art, music, and interaction with nature play a crucial role in fostering creative thinking. The development of children's creative abilities was implemented through organized sessions conducted in preschool educational institutions, where such activities hold a central role. In order to explain the concept of creativity to children and to stimulate their interest in art center activities, a competition titled "Creative Child" was developed and conducted. To assess the effectiveness of the competition, surveys were administered both before and after the event. As a result, the competition significantly enhanced the children's creative abilities and boosted their confidence in their own talents.

Key words: child upbringing, creative ability, activity, imagination, lesson, activity center.

Аннотация. В данной статье освещено содержание мероприятий, проводимых с целью развития творческих способностей воспитанников детского сада в процессе их деятельности, а также представлены результаты этих мероприятий. Возраст 4–5 лет считается наиболее благоприятным для воспитания детей. В этом возрасте дети склонны визуализировать свои представления и стремятся к новым идеям. Игры, искусство, музыка и знакомство с природой играют важную роль в развитии творческого мышления. Развитие творческих способностей детей осуществлялось в процессе организованных занятий в дошкольных образовательных учреждениях, где такие виды деятельности занимают центральное место. Для объяснения детям понятия творчества и повышения их интереса к деятельности в арт-центре был разработан и реализован конкурс под названием «Творческий ребёнок». Для оценки эффективности конкурса были проведены опросы до и после мероприятия. В результате данный конкурс способствовал развитию творческих способностей у детей и укреплению их уверенности в собственных талантах.

Ключевые слова: воспитание ребёнка, творческие способности, деятельность, воображение, занятие, центр активности.

KIRISH

Ma'lumki, bola tarbiyasi — bu bola tug'ilgandan boshlab u voyaga yetguniga qadar ongli ravishda amalga oshiriladigan tarbiyaviy jarayon bo'lib, unda bolaning aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik va ijtimoiy jihatdan sog'lom va barkamol shaxs sifatida shakllanishi ko'zda tutiladi. Ijodiy qobiliyatlar muhim, shuning uchun ularni erta bolalikdan shakllantirish lozim. Bola tarbiyasida ota-onaning o'rnini juda muhim. Ota-ona bola uchun birinchi ustoz va tarbiyachidir. Ularning harakati, nutqi, munosabati bola xarakteriga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ota-onalar o'z harakatlariga e'tiborli bo'lishlari zarur.

Ko'pincha ota-onalar bolaning aql-zakovati, mantiqiyligi va xotirasini rivojlantirishga ustunlik berib, ijodkorlik haqida unutadilar. Bu katta xato. Ijodiy va mantiqiy fikrlash bir-biriga qarama-qarshi emas, aksincha, bir-birini to'ldiradi. Bunday bilimlar bolaga murakkab ta'sir ko'rsatadi. Ular kuzatish, tasavvur, fikrlash, xotira va hissiy intellektni rivojlantirishga hissa qo'shadi. Agar siz ijodkorlikni qo'llasangiz, bog'chada o'qish jarayoni ancha samarali bo'ladi. Shu sababli ijodiy rivojlanish intellektual va jismoniy rivojlanishdan kam emas [14, 2].

Bolaning tarbiyasini ota-ona bilan hamkorlikda maktabgacha ta'lim tashkilotining mutaxassisleri o'zlarining berayotgan bilimlari davomida rivojlantirib boradilar. Bolalarda estetik tarbiyani shakllantirishda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muhim o'rin egallaydi. Ijodiy qobiliyat — bu bolaning mavjud bilimlarga asoslanib yangilik yaratish, turli vaziyatlarda noodatij yechimlar topish qobiliyatidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Rossiyalik psixolog L. S. Vygotskiy fikricha, ijod bolaning hayotiy tajribasiga asoslangan yangi obrazlarni yaratish jarayonidir [4, 7–97]. A. N. Leontev esa ijodkorlikni shaxsning rivojlanishida muhim omil sifatida ko'radi. Leontev ta'kidlashicha, bola nafaqat tashqi topshiriqlarni bajarishga, balki ichki ehtiyojlarini — o'zini ifoda etish, o'z qobiliyatlarini sinab ko'rish kabi istaklarini ham ijodkorlik orqali amalga oshiradi. Bu jarayon shaxsiy qoniqish va o'ziga ishonch hissini oshiradi. Demak, A. N. Leontev ijodkorlikni bola shaxsining rivojlanishida bevosita ishtirok etuvchi kuch sifatida ko'radi. U orqali bola nafaqat yangi narsalarni yaratadi, balki o'z "men"ini anglaydi, mustaqil fikr yurita boshlaydi va shaxs sifatida kamol topadi [6, 13–20].

Piaget nazariyasiga ko'ra, 2–7 yoshdagi bolalar "preoperatsional" bosqichda bo'ladi va ayni shu davrda ular ramziy fikrlashni o'rganadilar. Bu esa ularning ijodiy faoliyatga tayyorligini bildiradi. Bu yoshda bolalar ko'pincha o'yinda o'z fantaziyalarini namoyon etadilar [2, 7].

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda o'yin, san'at va tabiat bilan tanishish samarali usullar hisoblanadi. Shulardan biri bo'lgan o'yinga alohida e'tibor qaratish muhim deb hisoblaymiz.

Bolalar uchun o'yin — ijodiy rivojlanishda eng samarali vosita. O'yinlar orqali bolalar yangi tasvirlarni yaratadilar, insonlarni va voqealarni o'rganadilar hamda o'z fikrlarini erkin ifodalaydilar. Erkin o'yin, rol o'ynash kabi faoliyatlar bolalar uchun ijodiy muhit va obrazlarni yaratadi.

Bolalarda san'atga bo'lgan qiziqish — san'at bilan shug'ullanish bolalarning ijodiy rivojlanishini rag'batlantiradi. Amerikalik psixolog Howard Gardner o'zining "Ko'p intellekt nazariyasi"da shunday deydi: "Har bir bolada san'atga bo'lgan moyillik mavjud. Musiqiy, makoniy, badiiy-intuitiv qobiliyatlar orqali bola o'z dunyosini ifoda etadi" [1, 105].

Bu nazariyaga ko'ra, har bir bola o'z qobiliyatiga qarab san'atga turlicha munosabat bildiradi. Rasm chizish, musiqiy ohanglar eshitish, ranglar bilan ishlash — bularning barchasi bolaning emotsional va aqliy rivojlanishida asosiy omillardandir.

Farzandlarimizning ijodiy ishlarini tanqid qilish lozim emas. Fransuz ko'cha rassomi Tierr Guetta shunday deydi: "San'atni tanqid qilib bo'lmaydi, chunki har bir xato — yangi ijoddir" [9, 6]. Agar siz bolalar ijodidan natija va yutuqlarni talab qilsangiz, umuman ijodkorlikka bo'lgan ishtiyoqni so'ndirishingiz mumkin. Shu sababli ijodkorlik ilhomlantirishi va qo'llab-quvvatlashi kerak, bosim va asabiylikka yo'l qo'yilmasligi zarur.

Ijtimoiy muhit va pedagogik yondashuvlarga ko'ra, bir qancha olimlar bolalar hayotida san'atning o'rniga oid fikrlarini bildirganlar.

Rossiyalik mashhur psixolog Lev Semyonovich Vygotskiy san'atning bolalar hayotidagi o'rnini quyidagicha ifodalaydi: "San'at — bolaning hayotiy tajribasini boyituvchi, tasavvurni kengaytiruvchi asosiy omildir" [8, 9].

Amerikalik tadqiqotchi Ellen Winner ham shunga o'xshash fikr bildiradi: "San'atga bo'lgan qiziqish bola ijtimoiy tajribasining ajralmas qismiga aylanadi, bu esa uning shaxsiy rivojlanishini jadallashtiradi" [5, 55].

Shuningdek, Jean Piaget nazariyasiga ko'ra, bola konkret operatsion bosqichda aynan amaliy faoliyat orqali bilimlarni chuqur o'zlashtiradi. San'at bunday faoliyatlar qatoriga kiradi va bolaning abstrakt fikrlashini rivojlantirishda vosita bo'lib xizmat qiladi [7, 63].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Biz tomonidan taklif qilingan "Ijodkor bola" nomli qiziqarli tanlov o'rta guruhda o'tkazilishi belgilandi. Guruhdan 15 nafar bola tanlab olindi. Tanlov o'tkaziladigan xona oldindan tayyorlab qo'yildi. Bolalar foydalanishi uchun kerakli barcha jihozlar stollar ustiga joylashtirildi, ya'ni rangli qalamlar, bo'yoqlar, qora qalamlar, qog'ozlar, o'chirg'ichlar va boshqalar tayyor holga keltirildi.

Tanlov boshlanishi bilan bolalar o'z joylariga o'tirdilar va o'zlari yoqtirgan rasmlarni chizishni boshladilar. Har bir bola o'z xohishiga ko'ra rasm chizar ekan, ularning kayfiyati juda yuqori bo'ldi. Bir bola kapalak, boshqasi gul, yana biri esa tabiat manzarasi kabi rasmlar chizdi. So'ngra ular rasm chizishni davom ettirib, ranglar bilan bo'yash ishlarini amalga oshirdilar.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bolalar ushbu tanlovni deyarli hech qanday qiyinchiliklarsiz yakunladilar. Biroq, ba'zi bolalarda jismoniy charchoq holatlari kuzatildi. Shunga qaramay, g'alabaga bo'lgan intilish, ishonch va faol ishtirok ularga kuch bag'ishlab turdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, barcha bolalar faol ishtirok etdilar.

Bunda tanlov tartib-qoidalari va belgilangan vaqt hisobga olinar ekan, 3 nafar bola boshqa ishtirokchilarga nisbatan kamroq vaqt sarflagan holda eng chiroyli rasmlarni chizganliklari sababli g'olib deb topildi. Mashg'ulot yakunida bolalarni rag'batlantirish maqsadida "Ijodkor bolajon" nishoni bilan taqdirlash marosimi o'tkazildi.

Shuningdek, tanlov boshlanishidan oldin tarbiyalanuvchilarning ijodiy bilim darajalari savol-javob shaklida aniqlab olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan mashg'ulotning qanchalik samarali bo'lganini aniqlash maqsadida, tanlovdan so'ng bolalar bilan savol-javob shaklidagi interaktiv o'yinlar tashkil etildi. Ushbu o'yinlar orqali ularning ijodiy bilim va ko'nikmalari yana bir bor baholandi. Natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval

19-MTTda o'tkazilgan savol javoblar natijalari

T/r	Savollar	Mashg'ulotdan oldin		Mashg'ulotdan keyin	
		Jami ishtirokchilar	Tog'ri javob berganlar	Jami ishtirokchilar	Tog'ri javob berganlar
1	Rasm deb nimaga aytiladi?	15	10	15	12
2	Ranglarni to'g'ri tanlay olasizmi?	15	6	15	10
3	Ayiqcha rasmini bo'yash uchun qaysi rangdan foydalanasiz?	15	7	15	13
4	Kamalak rasmini bo'yash uchun nechki xil rangdan foydalanish kerak?	15	9	15	12
5	Bog'changizda barcha sharoit bormi rasm chizish uchun?	15	10	15	11
6	Rasm chizgandan so'ng buyumlarizni tartibga solasizmi?	15	11	15	14
7	Qaysi ranglardan ko'p foydalanasiz?	15	7	15	12

O'rtacha natija		8(55%)		12 (80%)
-----------------	--	--------	--	----------

Yuqoridagi jadval asosidagi natijalardan ko'rinib turibdiki, tanlovdan oldin berilgan savollarga 15 nafar boladan o'rtacha 8 nafari yetarlicha aniq javob bera olgan, xolos. Tanlov o'tkazilgach, aynan o'sha savollar bolalarga yana bir bor berildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, bolajonlarning javoblari o'rtacha 25 foizga yaxshilandi. Bu esa o'tkazilgan tanlovning samaradorligi va ta'sirchanligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Bolalarning ijodiy qobiliyatini oshirish maqsadida o'tkazilgan tanlovimiz bolalarning san'at markazidagi faoliyatlarini katta qiziqish bilan davom ettirishiga muhim turtki bo'ldi. Bolalarda doimo san'atga muhabbat uyg'otishni o'rgatish juda muhim. O'rta guruhlarda ijodiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida faqatgina individual o'rganish emas, balki guruhda o'zaro muloqot qilish va tajriba almashish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonni interaktiv metodlar, guruhli ishlar, muhokamalar hamda ijodiy qobiliyatni oshirishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlar bilan boyitish ijodiy ongni shakllantirishda yuqori samaradorlik beradi.

Bolalarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish uchun ertaklar va kitoblar ham katta ahamiyat kasb etadi. Ertaklar bolalar tasavvurini rivojlantiradi. Ular orqali bolalar yangi g'oyalarni kashf etadilar, yangi dunyoqarashlar shakllanadi. Ertaklar va hikoyalar bolalar ongida obrazlar va hissiyotni ifoda etishga imkon beradi. Shu bilan birga, bolalar yaxshilik va yomonlikni ajratishni, muammolarni hal qilishni o'rganadilar.

Kitob o'qish bolalarda tasavvur, obrazli fikrlash, til boyligi va emotsional dunyoqarashni kengaytiradi. Ayniqsa, ertaklar — o'ylab topilgan voqealar, afsona va qahramonlar orqali bola dunyoni fantaziya yordamida anglaydi. E. A. Flerina fikriga ko'ra: "Ertaklar bolaning tasavvurini uyg'otadi, ularni real hayotdagi muammolarga o'zgacha, ijodiy yondashishga o'rgatadi" [10, 272].

Kitoblar va ertaklarni o'qish bolalarda bir nechta rivojlanish bosqichlariga olib keladi. Bulardan:

Tinglash va muhokama qilish — bolalar ertaklarni tinglab, keyin qahramonlar xatti-harakatlari haqida o'z fikrlarini bildiradilar; bu esa tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni kuchaytiradi.

Erkin bayon qilish — bolaning ertakni qayta so'zlashi yoki o'zgartirib aytishi, o'z ertagini to'qib aytishi ijodiy fikrni shakllantirishning samarali vositasidir.

Rolli o'yinlar — ertak asosida o'tkaziladigan dramatisatsiya yoki sahnalashtirish bolalarda obrazli tafakkur va san'atga mehr uyg'otadi.

Bu borada tadqiqotchilar ham o'z fikrlarini bildirganlar. R. Muxamedrakhimova shunday deydi: "Maktabgacha ta'lim muassasalarida kitob va ertaklar yordamida ijodiy qobiliyatni shakllantirish — tarbiyaviy va intellektual rivojlanishning asosi hisoblanadi" [3, 4].

Shunga ko'ra bir nechta amaliy tavsiyalarni berish mumkin:

Har kuni bolalar bilan qisqa ertak o'qish va muhokama qilish.

Ertakdagi qahramonlarga boshqa tugallanish variantlarini taklif qilish.

Bolalarning o'z ertagini to'qishiga imkon berish.

Rasm chizish, qo'g'irchoq teatri, dramatik o'yinlar orqali ertaklarni jonlantirish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarning o'tilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Turli faoliyat turlarini birlashtirgan integratsiyalashgan mashg'ulotlar bolada har tomonlama fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantiradi. Masalan, "Bahor keldi" mavzusida rasm, she'r, qo'shiq va tabiat kuzatuvlarini birlashtirish mumkin.

Zamonaviy texnologiya vositalaridan — multimedia vositalari, interaktiv o'yinlar, ijodiy dasturlar orqali bolalarning dizayn, hikoya tuzish, raqamli san'at sohalaridagi ijodkorligini rivojlantirish mumkin. Shu bilan birga, raqamli vositalardan ortiqcha foydalanish bolaning real hayotdagi tajribasini cheklamasligi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 802-sonli Qarorida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlar dasturi aniq belgilab qo'yilgan [11, 4-bob]. Mazkur maqolada ushbu holatni kiritishni muhim deb bildik.

Maktabgacha ta'lim uchun namunaviy o'quv dasturi
JADVALI



T/r	Faoliyatlarning nomi	O'quv yili davomida			Qayta tiklash davrida		
		hafta davomida	oy davomida	o'quv yili davomida	hafta davomida	oy davomida	Qayta tiklash davrida
1.	Atrofingizdagi dunyo bilan tanishish Tajribalar - amaliy tajriba	1	4	36	1	4	12
2.	Tabiat bilan tanishish	1	4	36	1	4	12
3.	Nutqni rivojlantirish	2	8	72	1	4	12
4.	Badiiy adabiyot	1	4	36	viktorinalar	1	3
5.	Boshlang'ich matematika mantiqiy fikrlash	1	4	36	mantiqiy o'yinlar	1	3
6.	Chizma	2	8	72	1	4	12
7.	Ilova	1	4	36	1	4	12
8.	Qurilish inshootlari	1 burilish	2	36	1	4	12
9.	Loydan yasalgan plastilin	1	4	36	1	4	12
10.	Jismoniy ta'lim-tarbiya	2 (bittasi toza havoda)	8	72	sport o'yinlari	1	3
11.	Musiqqa	2	8	72	dam olish	1	3
Jami:		14	56	504	6	28	84

Ushbu jadval faqat maktabgacha yoshdagi 4–5 yoshli bolalar uchun tuzilgan. Boshqa yoshdagi bolalar uchun esa alohida mashg'ulot jadvallari mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ularning shaxsiy kamoloti va kelgusidagi ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatlari uchun muhim poydevor hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aynan 3–7 yosh oralig'i bolalarda ijodiy tafakkur, obrazli fikrlash, fantaziya va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllanadigan eng sermahsul bosqichdir. Ushbu jarayonda o'yin, tasviriy san'at, musiqiy mashg'ulotlar, dramalashtirish kabi faoliyat turlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, pedagogik yondashuvlar va metodikalar bolalarning erkin fikrlashiga, mustaqil izlanishiga va o'zini ifoda etishiga imkon yaratadi.

Shu bois, tarbiyachilar va ota-onalar bolalarning qiziqishlariga asoslangan faoliyatlarni tashkil etish, ularni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash orqali ijodiy rivojlanishiga kuchli turtki berishlari lozim. Zamonaviy metodlardan foydalanish, individual yondashuv va ijodiy ruhdagi muhit yaratish maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Natijada, bolalarda mustaqil fikrlovchi, tashabbuskor va ijodiy shaxs sifatida shakllanishi uchun zamin yaratiladi.

Yurtimizda esa ushbu yondashuvni amaliyotga tatbiq etish borasida muhim qadam sifatida Denov shahridagi 19-sonli maktabgacha ta'lim muassasasida o'tkazilgan "Ijodkor bola" nomli tanlov misol bo'la oladi. Ushbu tanlov davomida bolajonlar ranglarni to'g'ri ajratish, ularni tegishli rasmga moslab bo'yash zarurligini amaliy tarzda o'rganishdi. Shuningdek, ranglarni noto'g'ri rasmga moslab bo'yash bolaga psixik salbiy ta'sir ko'rsatishi, inson tasavvuriga noto'g'ri ma'lumotlarning singishiga sabab bo'lishi mumkinligi haqida muhim bilimlarga ega bo'lishdi.

Mashg'ulot orqali erishilgan ijodiy natijalar shuni anglatadiki, yosh avlod ongi va qalbida ijodiy savodxonlik hamda ijodiy madaniyatni shakllantirishda tanlovlar asosidagi o'yinlardan foydalanish juda samarali vosita hisoblanadi. Shu bois, bunday metodlarni barcha maktabgacha ta'lim muassasalarida keng joriy etish, bolalarning ijodiy ongini shakllantirish va ularni barqaror kelajak uchun mas'uliyatli fuqarolar sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur metodni amaliyotga keng joriy etish dolzarb va maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Gardner, H. (1983). *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. Basic Books, 105-bet.
- Piaget, J. (1969). *Hockenbury & Hockenbury, Lifespan Development*, 7-chi bo'lim.
- Muxamedrakhimova, R. (2019). *Maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish*. Toshkent: Fan va texnologiya, 4-bet.
- Vygotsky, L. S. (2004). *Imagination and Creativity in Childhood*. *Journal of Russian and East European Psychology*,

- 42(1), 7–97-betlar.
5. Winner, E. (1996). *Gifted Children: Myths and Realities*. Basic Books, 55-bet.
 6. A. N. Leontev. Потребности, мотивы и эмоции (1971), 13–20-betlar.
 7. Piaget, J. (1969). *The Psychology of the Child*. Basic Books, 63-bet.
 8. Vygotskiy, L. S. (2003). *San'at psixologiyasi*. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 9-bet.
 9. Tierri Guetta (2014). JUNKEE.COM, 6-bet.
 10. Flerina, E. A. (1972). *Bolalar ijodiy faoliyati*. Moskva: Pedagogika, 272-bet.
 11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.12.2020 yildagi 802-son qarori, yangilangan holatida: <https://lex.uz/docs/5179335?ONDATE=26.01.2024>, 4-bob.
 12. Rasulova, D. K. (2021). Ertaklar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning og'zaki ijodkorligini rivojlantirish. *Ilm-fan va ta'lim jurnali*, 3(2), 45–48. Elektron manzil: <https://ilmfanva.talim.uz/articles/2021/03/rasulova-ijodkorlik.pdf>
 13. Hamidova, M. (2022). Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda ertaklarning ahamiyati. *Maktabgacha ta'lim nazariyasi va amaliyoti jurnali*, 4(1), 60–64. Elektron manzil: <https://maktabgachatadqiqot.uz/articles/2022/hamidova-ertak-kitob.pdf>
 14. Fozilova, O., Islomxo'jayeva, G. Q. (sana ko'rsatilmagan). *Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari*. <https://www.in-academy.uz/>, 2-bet.

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Alibek ZOKIROV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin SOBIR O'G'LI

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Toshkent davlat pedagogika universitetining murojaatiga (24-04-2025 y., №11-05-2566/01) ko’ra, psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilganligini ma’lum qiladi.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo’yicha ekspert kengashi tavsiyasi (25-05-2025 y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (07-05-2025 y., №5/6); OAK Rayosatining qarori (08-05-2025 y., №370/5).

Manzirimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug’bek tumani
Kumushkon ko’chasi, 26-uy.